Xizmatlar sohasining rivojlanishi milliy xo‘jalikni barqaror o‘sishini ta’minlash, aholi bandligi va turmush farovonligini oshirishning muhim sifat omillaridan biri sanaladi. Servis va xizmatlar sohasini davlat tomonidan isloh qilish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida sohada iqtisodiy o‘sish sifatini oshirishga unda sezilarli darajada tarkibiy sifat o‘zgarishlariga yerishilganligi va tarmoqni rivojlanish tendensiyalarining o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish davrida xizmat ko‘rsatish sohasida yangi texnologik bazisni shakllantirish sohani rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda, shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev “Albatta, biz yeski tizimni batamom o‘zgartirib, o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadga to‘liq yerishdik, deb aytishga hali yerta. Takror aytaman, biz har kuni izlanishdamiz. Bu yo‘lda dastlabki qadamlarni qo‘ymoqdamiz, xolos”[1], deb ta’kidlagan.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida iqtisodiy jarayonlar yanada chuqur integratsiyalashib, xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini rivojlanishi natijasida uning mamlakat YaIMga va aholi bandligining o‘sishiga katta ijobiy hissa qo‘shmoqda. Bugungi kun iqtisodiyotida iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va bog‘liqliklar juda tez o‘sib bormoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasi nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohasi mahsulotlarining faol iste’molchisi, balki unga asosiy yetkazib beruvchi hamdir. O‘z faoliyatini amalga oshirish uchun moddiy ishlab chiqarish sohalaridan mashina va uskunalar sotib olib, shu bilan birga, professonal, biznes, ilmiy, texnik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport, savdo, moliya, AKT va boshqa turdagi xizmatlarni yetkazib beradi.

Raqamli texnologiyalarning bandlikka salbiy ta’siri haqida jiddiy havotirlarni Y. Brynjolfsson va Y. Makafi o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida ifoda yetishgan. Ularning fikriga ko‘ra, insoniyat ikkinchi mashina davriga kirib bormoqda va unda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli insonlarga tobora ko‘proq tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun imkoniyatlar ochilsada, shu bilan birga bu ularga ma’lum xavf-xatar va tahdidlarni vujudga keltiradi[2].

1 Mirziyoyev Sh. M. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharririga bergan intervyusi. https://daryo.uz/k/2021/08/17/.
2 Brynjolfsson E., McAfee A. (2012). Race Against The Machine: How the Digital Revolution is Accelerating Innovation, Driving Productivity, and Irreversibly Transforming Employment and the Economy. MIT: MIT Center of digital business. Available at:http://ebusiness.

Muammo shundaki, kompyuterlar va robotlar ba'zi kasblarni siqib chiqaradi. Qo'l mehnati asosida ishlaydigan ishchilar va muntazam og'ir, mashaqqatli kam malakali mehnat xodimlariga bo'lgan talab o'rniga yuqori malakali mutaxassislar tomon talab o'zgaradi, bu esa o'z navbatida birinchilarining ish haqining pasayishiga va daromadlar tengsizligining o'sishiga olib keladi3. Jahonning 59 mamlakatidan, 42 tasida, jumladan, Xitoy, Meksika va Hindistonda YaIM tarkibida ish haqi ulushi kamaygan[4].

K. Frey va M. Osborn tomonidan amalga oshirilgan baholashlarga ko'ra AQShda keyingi bir necha o'n yilliklar ichida bandlikning 47 %ini to'liq avtomatlashtirish mumkin[5]. Robotlar tomonidan siqib chiqarish bo'yicha yeng katta xavf, muntazam og'ir mashaqqatli va o'rta malakali mutaxassisliklar mehnatida jamlangan.

Britaniyalik fizik olim S. Xoking sun'iy aqlga asoslangan mashinalar tez orada insonlarni butunlay almashtirib, "yangi turmush mezoni"ga aylanishi to'g'risida o'z havotirini bildirdi[6]. Olim, shuningdek, o'zini-o'zi ishlab chiqaruvchi sun'iy aqlni ko'paytirish biologik jihatdan ustunlikka olib kelishi mumkinligini va bu insoniyat jamiyatining butunlay yo'q qilinishiga yoki uni tubdan o'zgartirishiga olib kelishi haqida xulosa bildirdi. Shunday qilib, ko'plab kasblar mashina va robotlar ta'siri ostida kelgusi o'n yilliklarda yo'q bo'lib ketish xavfi kutilmoqda. Shu munosabat bilan Dj.Bessen o'z tadqiqotlarida qiziqarli faktlarni keltiradi: AQSh iqtisodiyotida kompyuterlashtirishning o'sishi qayta ishlab chiqarish sanoatida bandlikning 3 %ga kamayishiga olib keldi, biroq shu bilan birga uning xizmat ko'rsatish sohasida yesa bandlikni 1 %ga o'sishiga turtki berdi. Shunday qilib, muallif ta'kidlab o'tadiki, "qayta ishlash sanoatida bandlikni salbiy kamayishini uning xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlaridagi o'sishi bilan qoplanishini nazarda tutadi[7].

Kelajakdagi istiqbolni ko'proq fantastik bashorat qilishlar ham bor. "Texnologik o'ziga xoslik" va transgumanizm g'oyasi tarafdorlari, xususan, V. Vindji va R. Kursveyl yaqin kelajakda (2030–2045-yillarga borib) texnologiyaning juda tez rivojlanishi va o'z-o'zini dasturlashtiruvchi sun'iy aqlning yeksponensional o'sishi yordamida inson mehnati deyarli butunlay siqib chiqarilishi mumkin bo'ladi, deb hisoblashadi.

Inson aqlini sun'iy aql bilan almashtirish, insonning shaxsiy hayotiga mashinalarni cheksiz kiritish, inson miyasidan nusxa olish va uni masofadan turib boshqarish, neyron interfeyslarni yaratish insoniyatni katta falokatga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan inson aql-zakovatidan ustun bo'lgan aqlni to'liq nazorat qilmaslik, uni tor guruhlar manfaatlari uchun harbiy va boshqa g'ayriinsoniy maqsadlarda foydalanish yehtimoli va xavfi mavjud. Xuddi shu Kursveylning bashoratlariga tayanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, aholining katta qismi uchun o'z-o'zini dasturlashtirilgan robotlarni ong bilan yaratish va uni saqlab turishga yehtiyoj yo'q, faqatgina aholining yeng boy 1 % yelitasi uchun cheksiz qulayliklar va umrboqiylik texnologiyalari mavjud bo'lsa yetarli hisoblanadi. Demak, bunday cheklovchi omillar qatoriga, bizningcha, quyidagilarni kiritish mumkin:

Iqtisodiy rivojlanishning siklik tavsifi, global iqtisodiy inqirozdan keyingi yillarda turli mamlakatlarda YaIMning o'sishi va mehnat unumdorligini pasayishi kuzatilmoqda;

Raqamli texnologiyalarni uzluksiz joriy yetilishiga qaramasdan korxona xodimlari o'rtasida ulardan foydalanish ko'nikmalarining yetishmasligi holatlari juda ko'p kuzatiladi. Korxonalarda o'rtacha 25 % xodimlar oddiy ofis dasturidan foydalanadi, 40 %i yesa undan samarali foydalanish ko'nikmasiga ega yemas[8]. Mehnat bozorida AKT mutaxassislari taklifi ortib bormoqda, biroq ayni paytda ularga bo'lgan talab undanda yanada tez o'sib bormoqda;

Robotlarning nisbatan yuqori darajadagi narxi qimmatligi va ulardan foydalanish uchun muhim investitsiyalarni jalb qilish yehtiyoji, robotlashtirish jarayonlarini tez takomillashtirish robotlarni ishlab chiqarishni arzonlashuviga olib keladi. Masalan, bir robot payvandchi 2005-yilda qiymati 182 ming dollar, 2014-yilda 133 ming dollar turgan va 2025-yilgi bashoratlarga ko'ra uning qiymati 103 ming dollar bo'lishi mumkin[9];

Ba'zi bir texnologiyalarning hayotiy emasligi. Muayyan texnologiyani ishlab chiqish qobiliyati har doim ham muammosiz bo'lishi va uning ishlash qobiliyati bilan bir xil bo'lmasligi mumkin. Shu munosabat bilan, ba'zi texnologiyalar bekor qilinadi deb taxmin qilish mumkin;

Ijtimoiy rad qilish. Inson ijtimoiy hayotga muhtoj, har bir individ o'zini faqat robotlar va kompyuterlar bilan atrofini o'rab turishini xohlamaydi, shu sababli jamiyatning ayrim aholi segmentlari uchun ular tahdid solishi mumkin.

Rus olimi R. Kapelyushnikov fikricha, uzoq istiqbolda ommaviy ishsizlik haqida gapirishning hojati yo'q, deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha: "turli xil bozor mexanizmlarining hamkorlikdagi harakati tufayli yangi texnologiyalarning dastlabki davrdagi mehnatni tejash samarasini qisman va to'liq qoplashi yoki hatto uni haddan

---

3 http://ebusiness.mit.
4 Race Against The Machine: How the Digital Revolution is Accelerating Innovation, Driving Productivity, and Irreversibly Transforming Employment and the Economy. MIT: MIT Center of digital business. S. 59.
5 Computers and the Future of Skill Demand. OECD Publishing. Paris. P. 21.
6 Хокинг С. О "новой форме жизни" на базе искусственного интеллекта/ РБК: https://www.rbc.ru/.
7 Bessen J. (2017). Automation and jobs: When technology boosts employment. Boston University School of Law, Law & Economics Research Paper, No. 17–09.
8 OECD Digital Economy Outlook (2017). Op. cit. P. 160.
9 The Robotics Revolution. (2015). The Next Great Leap in Manufacturing. Boston Consulting Group. September. P. 7.

tashqari mustahkamlashi mumkin, shuning uchun dastlabki davr vaziyatiga nisbatan iqtisodiyotdagi ish o‘rinlarining umumiy soni kamaymaydi balki, hatto ortishi mumkin[10]. Ushbu tendensiyalar asosida, bilim va ilm-fanga asoslangan hamda uning manbayi bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi yuqori texnologiyalarning uzoq vaqt davomida roli ortib boradi, ya’na uzoq vaqtlar davomida ularda yuqori malakali mehnatni konsentratsiyasi tufayli bandlikni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi, ayniqsa sanoat, kasbiy, ilmiy, ishbilarmonlik, texnik, axborot, ta’lim va tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sohalarida.

Ilg‘or fan-sig‘imkor xizmat ko‘rsatish sanoati yangi texnologiyalar ta’siri ostida yanada ko‘proq yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga bir qator xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida mehnat unumdorligining o‘sishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida bandlik dinamikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. M. Porter va J. Happelmanning qayd yetishicha aqlli texnologiyalar ta’siri ostida, “... yangi tarmoqlar, yangi xizmatlar va yangi vazifalar paydo bo‘ladi va bu ko‘proq insonlarga iqtisodiyotda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi”[11].

Ijtimoiy rivojlanishning ushbu va boshqa transformatsiyalari xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirishga turtki berdi, bu ularning yuqori differensiatsiyasi va turli xilma-xilligi tufayli jamiyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi.




1-rasm: Jahonning rivojlangan davlatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi YaIM hajmida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi (%da)[12]

Rivojlangan mamlakatlar xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotidagi ulushi 70 % va undan yuqori. AQSh, Fransiya va Buyuk Britaniyada bu ko‘rsatkich 78 % dan ziyodni tashkil yetmoqda. Germaniya rivojlangan sanoat ishlab chiqarishiga va xizmat ko‘rsatish tizimiga ega bo‘lgan mamlakat bo‘lib hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga kelsak, unda yanada turli xil jarayonlarni kuzatish mumkin. Masalan, Braziliyada xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 71,2 %ni tashkil yetib, rivojlangan mamlakatlar uchun ahamiyati yaqin bo‘lib, Xitoy va Koreya sanoat ishlab chiqarishining salmoqli ulushi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, Xitoyda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 48 %, Koreyada yesa 60 %ga yaqin oshdi. O‘zbekiston Respublikasida bu davrda xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi 38,6 % bilan barqaror o‘sish tendensiyasiga ega.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishiga yeng muhim ta’sir yuqori texnologiyali xizmatlar sanoati (AKT, professonal, ilmiy va texnik xizmat ko‘rsatish, ta’lim va sog‘liqni saqlash)ni ko‘rsatmoqda, ularning yalpi ichki mahsulot o‘sishiga qo‘shgan hissasi davr mobaynida 34% dan 44% gacha bo‘lgan. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasi rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda yesa YaIMga yeng katta hissa an’anaviy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari tomonidan amalga

10 Капелюшников Р. И. Технологический прогресс - пожиратель рабочих мест?/ Р. И. Капелюшников // Вопросы экономики. - 2017. - № 11. - С. 116.
11 Портер М., Хаппелманн Дж. Указ. соч. – С. 93
12 Muallif tadqiqotlari asosida hisoblandi: OECD Statistics. National Accounts. Available at: http://stats.cd.org/; Российский статистический ежегодник. – М.: Росстат, 2021 – 725 с. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-y. – 158 b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

oshiriladi. Ayni paytda, yeng rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotda xizmat koʻrsatish sektorining ulushi 80% va bu sektorni tegishli bandlikdagi ulushi 70% dan oshib bormoqda[13].

Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatish sohasining jadal rivojlanishi rivojlangan mamlakatlarga xos boʻlgan turli xil tendensiyalarga bogʻliq. Avvalo, ishlab chiqarishdagi texnologik oʻzgarishlar, xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirish omili sifatida qayd yetish lozim. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy yetish sanoatda biznes-jarayonlarning murakkablashuviga olib keldi, natijada yuqori texnologik ishlab chiqarishga yangi yuqori sifatli xizmat koʻrsatish uchun yehtiyojlarni vujudga keltirdi.

AKTlar an'anaviy xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlanishiga va uning faoliyat yoʻnalishlarini kengayishiga, yangi xizmat turlarining paydo boʻlishiga, tashkiliy va boshqaruv modellarining oʻzgarishiga hamda xizmat koʻrsatishda yangi usullarni keng joriy yetishga sabab boʻldi. Iqtisodiyotdagi raqobat hamda korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish zarurati resurslarni tejash va korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun yirik vertikal integratsiyalangan kompaniyalar tomonidan autsorsing amaliyotlarini keng qoʻllashda namoyon boʻlgan ayrim faoliyat turlarini alohida tarmoqlarga ajratishga turtki berdi.

Professional moliyachilar, advokatlar, buxgalterlar, marketologlar, reklamachilar, dizaynerlar, muhandislar va boshqa mutaxassislar tobora ishlab chiqarishning tashqi agentlari sifatida harakat qilmoqda va bozor konyunkturasiga qarab ularning aktivlarini oqilona boshqarish va kompaniyalar mulkini va nou-xaularni himoya qilib, ularning rivojlanish strategiyasi va yoʻnalishlarini ishlab chiqish orqali kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish uchun hissa qoʻshmoqda. Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatish sohasini rivojlanish dinamikasining oʻziga xos xususiyati shundaki, YaIMda xizmatlar sohasining ulushi 2010-yildagi 49,0 %dan 2021-yilga kelib 38,6 %gacha kamaydi.




2-rasm: Oʻzbekiston Respublikasi YaIM tarkibida ayrim tarmoq va sohalar ulushi (YaIMga nisbatan % hisobida)

Bu Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasini 2018-yildan YaIMni hisoblashning yangi metodologiyasiga oʻtishi natijasi boʻlib hisoblanadi. Rasmdan koʻrinadiki, tadqiq yetilayotgan davrda milliy xoʻjalikning uch sohasida tarkibiy oʻzgarishlar yuz bermoqda. Unda qishloq xoʻjaligini ulushi kamayib, sanoat va xizmat koʻrsatish sohalarini ulushini oʻsishi yuz bermoqda. Biroq bu oʻsishda xizmat koʻrsatish sohasi yuqori darajada yuz bermoqda, bu umumjahon tendensiyasiga mos keladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda "Raqamli Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi toʻgʻrisidagi farmoni qabul qilinishi bilan kelgusi ikki yilda mamlakatimiz hududlari va iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini raqamlashtirish boʻyicha 280 dan ortiq loyhalarni amalga oshirish va unga qariyb 2,5 mlrd. dollar investitsiyani jalb qilish rejalashtirilgan. Natijada har bir aholi punktida uy xoʻjaliklari kamida 10 Mbit/s tezlikda internetga kirish imkoniyatiga ega boʻladilar14. Oʻzbekistonda "axborot-kommunikatsiya" sohasini ustuvor darajada rivojlanishi natijasida sohada yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat 2016-yildan boshlab 2 baravarga oshib, 4,4 dan 8,8 trln. soʻmgacha, "axborot-kommunikatsiya" iqtisodiy faoliyat turi boʻyicha koʻrsatilgan xizmatlar hajmi yesa 2 baravarga oʻsib, 6,3 dan 12,9 trln. soʻmgacha oshdi.

13 Muallif tadqiqotlari asosida hisoblandi: OECD Statistics. National Accounts. Available at: http://stats.oecd.org/.

14 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ""Raqamli Oʻzbekiston – 2030" stpategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son Fapmoni.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida xizmatlar sohasini o'sish dinamikasi (%da)[15]

| № | Tarmoqlar | 2010-y | 2013-y | 2016-y | 2019-y | 2021-y |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Bozor xizmatlarining o'sish sur'ati (%da) | 114,6 | 114,3 | 112,5 | 112,5 | 119,2 |
| Shu bilan birga | | | | | | |
| 2 | Aloqa va axborotlashtirish | 128,7 | 121,9 | 111,7 | 108,0 | 121,8 |
| 3 | Kompyuter dasturlash | 121,8 | 130,4 | 114,9 | 103,7 | 126,7 |
| 4 | Moliya | 119,4 | 129,4 | 119,2 | 154,6 | 128,4 |
| 5 | Transport | 113,0 | 105,8 | 107,4 | 105,6 | 116,0 |
| 6 | Savdo | 118,6 | 119,4 | 114,7 | 105,1 | 112,7 |
| 7 | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar | 112,0 | 114,4 | 112,0 | 108,1 | 110,4 |
| 8 | Shaxsiy xizmatlar | 124,5 | 119,8 | 114,7 | 103,7 | 105,7 |
| 9 | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 114,8 | 116,4 | 115,8 | 103,1 | 104,1 |
| 10 | Turizm (mehmonxona xizmatlari bilan) | 110,4 | 116,1 | 117,8 | 104,1 | 118,7 |
| 11 | Yashash va umumiy ovqatlanish | 120,9 | 116,6 | 111,7 | 105,6 | 112,7 |
| 12 | Ta'lim | 95,1 | 107,5 | 108,3 | 106,8 | 128,7 |
| 13 | Sog'liqni saqlash | 131,5 | 127,2 | 116,1 | 113,8 | 126,4 |
| 14 | Boshqa xizmatlar | 110,1 | 111,2 | 111,7 | 102,8 | 109,9 |

Jadval ma'lumotlarining 2021-yil yakunlariga ko'ra, xizmatlar sohasining o'sish sur'atlari 119,2 %ni tashkil yetdi va bunda asosiy ulush (umumiy o'sishning 50 foizigacha) kompyuter dasturlash xizmatlari (126,7 %), Moliya (128,4 %), ta'lim (128,4 %) va sog'liqni saqlash (126,4 %) hissasiga to'g'ri keladi. Xizmatlar sohasining tarmoq tarkibida an'anaviy xizmat turlari transport, savdo, me'morchilik sohasidagi xizmatlar, shaxsiy xizmatlar, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar kabi turlarining o'sish sur'atlari pasayib o'rtacha 2021-yilda 109,7 %ni tashkil qilgan bo'lsa, zamonaviy AKT bilan bog'liq xizmat turlari aloqa va axborotlashtirish, kompyuter dasturlash, moliya, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash tarmoqlarida esa o'rtacha yillik o'sish 125,2 %ni tashkil qilmoqda.

Bu jahonning rivojlangan sanoat ishlab chiqarishiga va xizmat ko'rsatish tizimiga ega bo'lgan AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi mamlakatlarning xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanish tendensiyalariga mos keladi.

2021-yilda asosiy kapitalga sarflangan yalpi investitsiyalarda xizmatlar sohasining ulushi 30,7 %ni, ya'ni 50314,7 mlrd. so'mni tashkil yetdi. Maqsadli tarmoq dasturlarini amalga oshirish doirasida yo'l-transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish va shuningdek, uy-joy qurilishiga investitsiyalarning katta hajmi yo'naltirildi. Xizmatlar sohasida asosiy kapitalga sarflangan investitsiyaning tarkibiy tuzilmasida salmoqli o'rinni uy-joy qurilishi egallaydi. Ushbu sohaning ulushi 2010–2021-yillarda 14,7 % dan 16,2 % gacha o'sdi. Bunda mamlakatimiz hududlarida aholi uchun qurilayotgan zamonaviy namunali uylar asosiy ulushni tashkil etadi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 11-yanvardagi PQ–1683-sonli "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish" loyihasini ko'p martalik transh bo'yicha moliyalashtirish dasturini amalga oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida Respublikamizda namunali uy-joy qurilishini rivojlantirish sabab bo'ldi16.

Xizmatlar sohasida iqtisodiyotning qon tomiri hisoblangan transport va aloqa sohasiga kiritilgan investitsiyalar ulushi 2021-yilda o'rtacha 13,2 %ni tashkil yetmoqda. Ushbu investitsiyalarning asosiy qismi temir yo'llar qurilishi va yelektrlashtirish, O'zbek milliy avtomagistralining modernizatsiya qilinishiga, shuningdek, zamonaviy aloqa tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida iste'mol talabi tobora individuallashib bormoqda. Jamiyatning o'sib borayotgan yehtiyojlari va unga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga bo'lgan talablarning oshishiga, malakali va yaxshi ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlar sonini o'sishiga, xizmatlarning differensatsiyalashuviga olib keladi, shu bilan birga, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida, madaniyat va ko'ngilochar sohalarda, masalan, kino ishlab chiqarish, muzeylar, teatrlar, ommaviy axborot vositalari va boshqalarda ko'proq darajada yuqori fan sig'imkor texnologiyalarni axborotlashuv va kompyuterlashni kirib kelishiga rag'batlantirmoqda. Ilm-fan va innovatsiya bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb yetib, ayniqsa yuqori fan sig'imkor tarmoqlarda, uning ajralmas qismiga aylanmoqda.

15 O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-y. – 156 b.

16 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 11-yanvardagi PQ–1683-sonli "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ""Raqamli O'zbekiston – 2030" stpategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son Fapmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 11-yanvardagi PQ–1683-sonli "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori.
3. Mirziyoyev Sh. M., "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharririga bergan intervyusi. https://daryo.uz/k/2021/08/17/
4. The Robotics Revolution. (2015). The Next Great Leap in Manufacturing. Boston Consulting Group. September. P. 7
5. Brynjolfsson E., McAfee A. (2012). Race Against The Machine: How the Digital Revolution is Accelerating Innovation, Driving Productivity, and Irreversibly Transforming Employment and the Economy. MIT: MIT Center of digital business. Available at:http://ebusiness.
6. http://ebusiness.mit.
7. Race Against The Machine: How the Digital Revolution is Accelerating Innovation, Driving Productivity, and Irreversibly Transforming Employment and the Economy. MIT: MIT Center of digital business. S. 59.
8. Computers and the Future of Skill Demand. OECD Publishing. Paris. P. 21
9. Капелюшников Р. И. Технологический прогресс - пожиратель рабочих мест?/ Р. И. Капелюшников // Вопросы экономики. - 2017. - № 11. - С. 116.
10. Портер М., Хаппелманн Дж. Указ. соч. С. 93.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.